

OILADA BOLALAR HISSIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI.

Mirzayeva Saida Norqulovna

Denov tumanidagi 28_umumiyo o‘rta ta’lim maktabi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13283329>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada bolalarda bo‘lgan his-tuyg‘u, ya’ni ruhiy holat o‘z o‘rnida ijobiy ta’sir qo‘sibgina qolmay, butunlay salbiy ta’sirga aylanishi mumkin. Bu holatning asosiy mezoni meyordan oshmaslik muhimligi va psixologik mexanizmlarini haqida.

Kalit so’zlar: ijtimoiy muhit, shaxs, oila, xulq - atvor, tarbiya, hissiyot.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF CHILDREN'S EMOTIONAL DEVELOPMENT IN THE FAMILY.

Abstract. In this article, the feeling that children have in the family, that is, the state of mind, can not only add a positive effect, but can turn into a completely negative effect. The main criterion of this situation is the importance of not exceeding the norm and psychological mechanisms.

Key words: social environment, person, family, behavior, upbringing, emotion.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ.

Аннотация. В данной статье ощущение детей в семье, то есть душевное состояние, может не только добавить положительный эффект, но и перейти в совершенно отрицательный эффект. Главный критерий этой ситуации – важность непревышения нормы и психологических механизмов.

Ключевые слова: социальная среда, человек, семья, поведение, воспитание, эмоция.

Har bir davlatning taraqqiy etishida, uning o‘z ertasini belgilashida ta’lim tizimiga davlat miqyosidagi eng muhim vazifalardan biri deb qarash, uning yaqin va uzoq kelajagini taraqqiyot bilan ta’minlaydigan omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu omildan unumdar foydalanishning shartlaridan biri, davlat taraqqiyot bosqichining ta’lim yo‘nalishi bilan mos olib borilishida. Davlatning taraqqiyot bosqichi o‘zgarishi bilan ushbu davlatda ta’lim ham taraqqiyotga moslashtirilib o‘zlashtirilishi shart.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma’lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo‘lib, har tomonlama sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma’sul bo‘lgan g‘oyat muhim

tarbiya o'chog'dir. Oilada bolalar xulq-atvori va hissiyotini rivojlantirishning psixologik yo'llari Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning asarlarida, xalq og'zaki ijodi, xadislarda o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, rus olimlaridan L.S.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, B.M.Teplov, o'zbek olimlaridan B.R.Qodirov, E.G'oziyev, Nishonova, Z.T, lar o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida korreksion mashg'ulotlarni tashkil etishga doir muammolarni tadqiq etganlar.

Oilada mavjud bo'lган his-tuyg'u, ya'ni ruhiy holat o'z o'rniда ijobiy ta'sir qo'shibgina qolmay, butunlay salbiy ta'sirga aylanishi mumkin. Bu holatning asosiy mezoni meyor. Meyor buzilgan joyda mehr qahrga, nafrat dahshatga yetaklaydi. Ota onasidan yetarlicha mehr ko'rmagan bola g'azabnok, bemehr, shafqatsiz, boshqalar qadriga befarq qaraydigan qo'pol, dag'al, ba'zi hollarda esa g'amgin, shijoatsiz, yig'loqi, hayotga nursiz nazar bilan qaraydigan bo'lib yetiladi.

Aksincha, oilada ortiqcha mehr ko'rgan bola esa xudbin bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatini ko'zlovchi bo'lib o'sishi mumkin. Bundaylar maqtanchoq, ko'r-ko'rona harakat qiluvchi, shuhratparast, maqtovni yoqtiradigan bo'lishadi.

Shu o'rinda bir jihat. G'arb oila muhiti bolani tez moslashuvchan, hayotning bugunidan to'liq imkonda foydalanib, quvonib va lazzat topishga o'rgatsa, Sharq oilasi bolani hayotga tayyorlashda sustkashlikka, kattalarga ishonuvchan va o'z kuchiga unchalik ishonmas, hayotdagi baxt, quvonch va lazzat tushunchalaridan qochadigan qilib tayyorlashi bilan ajralib turadi.

Chunonchi, biz bolalarimizga oilada ko'p ham erk beravermaymiz. Ular o'rniga o'zimiz masalani hal qilib, tayyor yechimni qabul qildirishga urinamiz. Natijada bolalarimiz shijoat, mustaqillik, hushyorlikdan ancha uzoq bo'lishadi, tashabbuskorliklarini yo'qotadi. Bu esa bugungi hayot tarziga, atrofdagi raqobatchilik muhitiga uncha ham mos kelavermaydi. Oiladagi ma'naviy-ruxiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas'uldir.

Oilada tarbiya topgan xar bir inson har jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi atsa-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi.

Har bir ertak ma'lum bir davrga, xalqqa, millatga xos bo'ladi. Bolalar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lган qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi ertaklar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Bolalarga muhabbat – bu juda muhim psixologik-pedagogik muammo hisoblanadi, chunki ana shu muhabbat sababli ota-onalar ko‘plab tuzatib bo‘lmash xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Hamma xalq hikmatli so‘zlarida bolalarga cheksiz muhabbat xissi ifoda etilgan.

“Uyning bezagi – bu boladir, dasturxonning bezagi - mehmon”. Bolaning tarbiyaliligi ham juda qadrlanadi. Masalan, o‘zbek maqollarida shunday deyiladi:

“Bola qimmatbahodir, lekin yanada ham qimmatlisi uning tarbiyasi” (“bola aziz, odobi undan aziz”). Otalarining shaxsiy ibrat ko‘rsatishlariga ko‘p e’tibor qaratgan. Otaning yomon odati albatta bolaga ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun “Janjalkash otaning o‘Qei urushqoq bo‘ladi” deb aytadilar. Ota va onadan tashqari oilada tarbiyachilik vazifasini buva va buvisi va boshqa qarindoshlari ham bajaradilar. Amalda ular noma’lum xalq pedagoglari hisoblanadilar. Xalq donishmandlari buvalar va buvilar haqida maxsus ertaklar to‘qiganlar. Boshlang‘ich ijtimoiylashish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo‘lganlar va shunday bo‘lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi muhit va sharoit bolaning shaxsi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ota va ona o‘z bolasini ardoqlaydi, erkalaydi, tashvishini qiladi, hayot tashvish va qiyinchiliklaridan asraydi. Ota-onalarning shaxsiy ibratlari – bolaning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatish muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi, havas qilishiga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega bo‘lmay bola kattalar qilganini takrorlaydi, ularning harakatlariga taqlid qiladi. Ba’zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof dunyoga, odamlarga nisbatan yagona o‘lchov belgisi bo‘lib qoladi.

Bola shaxsi tarbiyasiga shunchaki o‘zining borligi bilan ta’sir ko‘rsatmaydi, balki qulay ma’naviy-psixologik muhiti, uning a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar bilan ta’sir ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. Oilaviy muhit va bolalar //Qalqon. – 2006, - №1.- B.14-15.
2. Личко А.Е. О динамике акцентуаций характера. – В.кн.: Патохарактерологические исследования у подростков. Л.,1981, с.78-89.
3. Yadgarova G.T., Avlayev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo‘llanma) Т.: 2007 у.
4. Игошев К.Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей. М.1967, с.67-68.
5. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. (Monografiya). “Fan” nashriyoti, Toshkent – 2008, 284 b.

6. Umarov B.M. Tarbiyasi og‘ir bolalar va ular xulq-atvoridaqgi og‘ishlarning kelib chiqish sabablari. (Uslubiy qo‘llanma) – Toshkent, “Aloqachi” nashriyoti – 2008, 64 bet.
7. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o‘rni (Uslubiy qo‘llanma). Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi nashriyoti, Toshkent. 2008 y. 97 bet.